

SEKULARIZM VA YUMSHOQ KUCH: MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA SIYOSIY IDENTITET VA GLOBAL HAMKORLIK OMILLARI

Mokhira Zoirova

*Magistrant, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti, Siyosatshunoslik kafedrası*

Nilufar Usmonova

*Magistrant, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti, Siyosatshunoslik kafedrası*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida dunyoviylik (sekulyarizm) tamoyillari va ularning amaliy muammolari, shuningdek, xalqaro munosabatlarda yumshoq kuch konsepsiyasining antropologik asoslari tahlil qilinadi. Ichki siyosiy barqarorlik va tashqi siyosiy imijni shakllantirishda sekulyarizm va yumshoq kuch o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: sekulyarizm, yumshoq kuch, siyosiy identitet, antropologiya, Markaziy Osiyo, global hamkorlik.

Аннотация. В статье анализируются принципы секуляризма и их практические проблемы в странах Центральной Азии, а также антропологические основы концепции «мягкой силы» в международных отношениях. Секуляризм и «мягкая сила» рассматриваются как взаимосвязанные процессы в формировании внутриполитической стабильности и внешнеполитического имиджа.

Ключевые слова: секуляризм, «мягкая сила», политическая идентичность, антропология, Центральная Азия, глобальное сотрудничество.

Annotation. This article analyzes the principles of secularism and their practical problems in the countries of Central Asia, as well as the anthropological foundations of the concept of soft power in international relations. Secularism and soft power are seen as interrelated processes in the formation of internal political stability and foreign political image.

Keywords: secularism, soft power, political identity, anthropology, Central Asia, global cooperation.

Markaziy Osiyo davlatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — mustaqillikdan keyingi davrda murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida davlat mafkurasi ateizmga asoslangan edi, din esa jamiyatdan chetlashtirilgan edi. Mustaqillikka erishilgach, dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni keskin ortdi. Shu sababli, diniy qadriyatlar va sekulyar

davlat tamoyillari o'rtasida muvozanat izlash siyosiy jarayonlarning eng asosiy masalalaridan biriga aylandi.

Shu bilan birga, XXI asrda xalqaro siyosatda faqat harbiy yoki iqtisodiy kuch emas, balki madaniy, ma'naviy va identitet omillari ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan "yumshoq kuch" nazariyasi davlatlarning xalqaro siyosatda o'z manfaatlariga jozibadorlik orqali erishishini tushuntiradi. Bu nazariya antropologik yondashuv bilan uzviy bog'liq: madaniyat, qadriyatlar, til, diniy meros va milliy identitet tashqi siyosat vositasiga aylanadi. Sekulyarizm va yumshoq kuch o'zaro bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Sekulyarizm ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlasa, yumshoq kuch tashqi siyosatda mintaqaning global imidjini shakllantirishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi konstitutsiyaviy jihatdan dunyoviy davlat deb e'lon qilingan. Masalan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (61-modda): "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan".
- Qozog'iston Konstitutsiyasi (5-modda): diniy tashkilotlar davlatdan alohida faoliyat yuritadi, davlat esa diniy neytrallikni kafolatlaydi.
- Qirg'iziston Konstitutsiyasi (7-modda): davlat va din ajratilgan, biroq diniy tashkilotlarning huquqlari himoya qilinadi.

Bu normalar sekulyar davlat qurilishining asosini tashkil etadi. Biroq, amaliyotda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- Ekstremizm xavfi. 1990–2000-yillarda "Hizb ut-Tahrir", "Islomiy harakat" kabi guruhlarining faoliyati mintaqada keskin xavf tug'dirdi. Shu sababli hukumatlar diniy faoliyatni qat'iy nazorat qilishga majbur bo'ldi.
- Diniy erkinlik va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanat. Pew Research Center (2021) ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlarida diniy erkinlik bo'yicha ayrim chekllovlar mavjud. Bu esa xalqaro hamjamiyat tomonidan tanqid qilinsa-da, hukumatlar buni milliy xavfsizlik bilan izohlaydi.
- Identitet muammolari. O'zbekiston Karimov davrida milliy identitetni asosan o'zbek etnikati atrofida shakllantirgan bo'lsa, Mirziyoyev davrida ko'p millatli va inklyuziv identitet siyosati rivojlantirilmoqda.

Jozef Nay yumshoq kuchni davlatning "jalb qilish qobiliyati" sifatida ta'riflaydi.

Uning asosiy komponentlari:

- madaniyat – milliy meros, san'at, til, tarix;
- siyosiy qadriyatlar – demokratiya, inson huquqlari, erkinlik;
- tashqi siyosat amaliyoti – xalqaro hamkorlik va diplomatiya.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida yumshoq kuchning asosiy komponentlari sifatida islomiy meros va sharqona qadriyatlarni aytish joiz. Mintaqada diniy qadriyatlar xalq hayotida muhim rol o'ynaydi, biroq davlat ularni dunyoviylik

tamoyillari bilan muvofiqlashtirishga intiladi. Bundan tashqari, tarixiy-madaniy resurslar, jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar O'zbekistonning yumshoq kuchi sifatida turizm va madaniyat diplomatiyasida qo'llanmoqda. Yana bir muhim birliklardan biri til va adabiyot yo'nalishi bo'lib, Qozog'iston "turkiy dunyo yetakchisi" imidjini mustahkamlash uchun til diplomatiyasidan foydalanmoqda. Appadurayning globallashuv nazariyasiga ko'ra, madaniy oqimlar "manzara"lar (etnik guruhlar oqimi, axborot manzarasi, texnologiyalar oqimi, kapital oqimi, g'oyaviy manzara va boshqalar) millatlararo muloqotni shakllantiradi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining yumshoq kuch siyosati ham ana shu oqimlarga tayanadi. Mintaqaviy tashabbuslar sifatida Qozog'istonning "Astana xalqaro muloqot maydoni", O'zbekistonning "Markaziy Osiyo +" formatidagi tashqi siyosat tashabbuslari mintaqaning yumshoq kuch siyosatini mustahkamlab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mamlakatlarida sekulyarizm davlat qurilishining ajralmas tamoyili bo'lib qolmoqda. Mustaqillikdan so'ng bu davlatlar diniy meros va zamonaviylik o'rtasida muvozanat topishga intildi. Konstitutsiyaviy hujjatlarda din va davlat ajratib qo'yilgan bo'lsa-da, amaliyotda diniy ekstremizm xavfi, milliy identitetni shakllantirishdagi qiyinchiliklar va diniy erkinlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar hanuz mavjud. Yumshoq kuch nazariyasi esa mintaqaning xalqaro maydondagi o'rnini belgilashda muhim vositaga aylandi. Madaniyat, tarixiy meros, ta'lim diplomatiyasi, turizm va xalqaro tashabbuslar orqali Markaziy Osiyo davlatlari o'z jozibadorligini oshirmoqda.

Shu asosda aytilish mumkinki, Markaziy Osiyo davlatlarida kelajakda sekulyarizm va yumshoq kuchni uyg'unlashtirish davlat barqarorligi, xalqaro integratsiya va global hamkorlikni chuqurlashtirishning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi. Bu ikki konsepsiyani uyg'un holda rivojlantirish siyosiy identitetni mustahkamlaydi, milliy manfaatlarni ilgari surishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi va mintaqaning xalqaro siyosatda faol hamkor sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adams L. Everyday Life in Central Asia: Past and Present. – Bloomington: Indiana University Press, 2019. – 364 p.
2. Appadurai A. Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996. – 229 p.
3. Khalid A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 2007. – 281 p.
4. Nye J.S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004. – 191 p.
5. Nye J.S. The Future of Power. – New York: PublicAffairs, 2011. – 320 p.
6. Pew Research Center. Restrictions on Religion. – Washington DC: Pew Research Center, 2021. – 65 p.

7. Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyasi (2010, o'zg. kiritilgan 2021) (<http://www.constitution.kg>)
8. Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi (1995, o'zg. kiritilgan 2023. (<https://www.constitution.kz>)
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023. (<https://constitution.uz>)
10. United Nations. Resolution on Education and Religious Tolerance. – UN General Assembly, 73rd Session, New York, 2018. (<https://www.un.org>)